



## BOSHLANG'ICH SINFLARGA INGLIZ TILINI O'QITISH USULLARI

Umarova M. N.

Andijon davlat chet tillari instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilini yosh avlodga maktabgacha ta'lim va boshlang'ich sinflardan o'rgatib borishning turli xil usullari va o'yinlar orqali ularni o'qitish haqida fikr yuritiladi. Yosh avlodga yoshlidan chet tillarni o'qitishning afzalliklari mavjudligi va boshlang'ich sinflardan boshlab ingliz tiliga mehr qo'yishi va mukammal o'rganishlar orqali qiziqishlarini uyg'otish usullari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinflar, ingliz tili, o'yinlar, yosh avlod, ta'lim, maktab.

**Abstract:** This article is discusses the different ways to teach English to the younger generation from pre-school and primary grades and teaching them through games. The young generation is taught about the benefits of learning foreign languages from an early age and ways to instill a love of English and interest in it through excellent learning from the primary grades.

**Keywords:** Elementary classes, English, games, young generation, education, school.

**Абстрактный:** В этой статье рассматриваются различные способы преподавания английского языка подрастающему поколению начиная с дошкольных и начальных классов а также обучение их посредством игр. Молодому поколению рассказывают о преимуществах изучения иностранных языков с раннего возраста и способах привить любовь к английскому языку и интерес к нему посредством отличного обучения с начальных классов.

**Ключевые слова:** Начальных классов, английский язык, игры, молодое поколение, образование, школа.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab kun sayin ortib bormoqda: Bugungi kunda xorijiy tillarni nilish ko'nikmasi hayotimizning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqld qilish xususiyati kuchli ekanligini, kattalarga qaraganda ularda qabul qilish xususiyati kuchli bo'ladi, shuni e'tiborga olish kerakki 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, balki ular o'yinlar va hatti harakatlar orqali o'rganishadi, shuning uchun ularga ingliz tilining gramatikasi shart emas. 9 yoshgacha bo'lgan bolalarga o'yinlar orqali darslar o'tish kerak. Masalan, darsga jalb qilish va qiziqtirish uchun ularga o'zları yodlagan so'zlar bo'yicha so'z o'yinlari, yana turli xil rasmlar orqali o'rgatish og'zaki savol javoblar ularni ismi, familiyasi, yoshi bilan bog'liq savollar berish orqali ularni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Hozirg kunda chet tillarga bo'lgan talab va imkoniyat juda ham kuchaygan, lekin ayrim maktablarda chet tillarini o'qitadigan mutaxassislar yetishmaydi. Shuning uchun ba'zi yosh avlodlarimiz savodsiz bo'lib bormoqda. Prezidentimiz Mirziyoyev Sh. doimo yosh avlodlarning chet tillarini o'rganishi kerakligini bot-bot takrorlaydi, shu bois maktablarga kerakli zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlab bergen. 1-sinfdan boshlab chet tili darslari o'qitilayotgani ni misol qilsak bo'ladi.

Chet tili o'qitish metodikasi, prof. Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha, ta'limning maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet tili yordamida ta'lim-tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fandir. Boshqacha qilib aytganda, metodika chet tili o'rgatish ilmi bo'lib "chet tili" ni o'quv predmeti sifatida belgilaydi, muallim o'quvchi faoliyatini o'rganadi va boshqa fanlar yutuqlarini o'zlashtirish va o'z qonuniyatlarini ishlab chiqish yo'llarini tadqiq etadi. Chet tilini o'qitish juda ham murakkab, chunki o'qilishi va yozilishi boshqa bo'lib, bolalar talaffuzda qiyinalishadi. Shuning uchun chet tilini o'qitish metodikasi prinsiplari murakkab, bunda muallim juda ziyrak bo'lishi va talaffuzda adashmasligi kerak.



Yosh avlod yangi novdaga o'xshaydi, agar pedagogik to'g'ri ta'lif bersa, albatta, o'sayotgan yosh avlod rivojlanadi. Chet tillarni o'qitish metodikasida prinsiplarni tadqiq etish, ularni ilmiy-nazariy asoslab berish masalalari ko'plab metodislar e'tiborini tortib keladi. Chet el va mamlakatimiz metodikasi manbalarida bu sohada munozarali fikr yoritilgan. Avvalan, chet til o'qitish metodikasi prinsiplarini olg'a surish me'zonlari haqida fikr yuritilgan. Birinchisi-bu mezon chet tildan boshqa o'quv predmeti metodikasiga tatbiq etish o'rinsizligi, ya'ni ushbu predmetning o'zigagina xosligi mezoni. Ikkinchisi-chet til metodikasida shakllangan prinsipiqa oid ilmiy tushunchalarning hatto yaqin fanlarga ham daxli yo'qligi, mazkur sohanigina aks ettira olish mezoni.

Xullas men yana dars jarayonlarida boshlang'ich sinflar bilan ishlash juda ham ehtiyojkorlikni talab qiladi, chunki bitta sinfda 25 ta o'quvchi bor deb olsak 25 xildagi o'quvchilarni ko'rishimiz mumkin. Men o'zimni o'qitish metodimdan kelib chiqqan holda shuni aytmochimanki, 25 ta o'quvchilarning orasida eng to'polonchi va yaxshi o'zlashtirmaydigan o'quvchilarga e'tibor ko'proq qaratilsa, ular ham yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilar qatorida bo'lishi mumkin. Men doimo o'quvchilarga dars mobaynida har xil o'yinlar bilan qiziqtirishga harakat qilaman. Masalan: ingliz tilidagi so'zlarni ohirgi harfiga so'z topish, rasmlarga qarab tasvirlab berish. Shunday o'yinlardan keyin o'quvchilar darsga qiziqishadi deb o'ylayman. Har bir muallim mavzuni tushuntirishdan oldin shunaqa o'yinlar o'tib keyin mavzuni tushuntirsa hech qachon o'quvchilarni esidan chiqmaydi, chunki ularni o'sha o'yinlardan keyin fikri bir joyga yig'iladi, miya rivojlangan payt bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda , aynan, 15 minut darsni qabul qiladigan payti bo'ladi, va qolgan vaqtini o'yinlar va har xil zamonaviy metodlar bilan o'tish tavsiya etiladi. Boshlang'ich sinflarda chet tili o'qitish metodikasi fani o'qitish jarayonida ta'limning an'anaviy va interfaol o'qitish usullaridan ham foydalilaniladi. Amaliy mashg'ulotlar og'zaki va yozma shaklda tashkil etilishi ko'zda tutiladi. Amaliy mashg'ulotlarni o'qitish jarayonida ilg'or pedagogic texnologiyalardan, xususan, ko'rgazmali slaydlarni kompyuter orqali namoyish etish, elektron materiallarni proektor orqali tasvirga chiqarish vositalaridan foydalilaniladi. Fanning amaliy mashg'ulotlarida ta'limning innovatsion, interfaol metodlari, jumladan, ekspress-so'rovlari, aqliy hujum, ajurli arra, munozara, kichik guruhlarda ishslash, menuy, debat kabi metodlarini qo'llab –quvvatlash nazarda tutiladi.

Islom Abdug'aniyevich Karimovning chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirishning chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-1875-sonli qarorida “2013-2014- o'quv yilidan boshlab : respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umuman ta'lif maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi”, -deb aytgan.

Ingliz tilini o'qitishdagi yana bir muhim jihat shuki o'quvchining qay holatda ma'lumotni to'laqonli qabul qilishini nazorat qilishdir. Bir guruuhdagi bolalarning o'y-hayollari, fikrlashi, dunyoqarashi ma'lumotini qabul qilishi turlichcha bo'ladi. Shunga ko'ra o'qituvchi har bir o'quvchining harakteri xususiyatidan kelib chiqqan holda ta'lif jarayonini olib borishi kerak. Misol uchun, qaysidir o'quvchida ko'z bilan eslab qolish, yana birida eshitish orqali eslab qolish qobiliyati tabiatan shakllangan bo'lishi mumkin. Shu xususiyatlarga ko'ra ingliz tilini o'rganish asosiy 3 yo'nalishda bo'ladi.

- Visual learning – ko'rish orqali ma'lumotni eslab qolish
- Auditory leraning – eshitish orqali ma'lumotni eslab qolish.
- kinaesthetic learning – harakatlar orqali maa'lumotni eslab qolish.

Shunday metodlarga asoslanib darslar o'tilsa, albatta, yosh avlodlarimiz yuksak cho'qqilarga chiqishi mumkin. Muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 53 ming nafar o'qituvchi bilan bo'lgan videoselektrda “ Har bir bitiruvchi kamida 2 ta chet tilini bilishi shart”-deb ta'kidlab o'tgan.



Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinflarni ingliz tilini turli sinflar doirasida o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beruvchi pedagogik innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars ishlanmalar yordamida dars o'tish o'quvchilarda tilni o'rganish uchun yuqori samara beradi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Sh. Mirziyoyev <https://www.gazeta.uz>
2. Islom Abdug'aniyevich Karimov 2012-yil 10-dekabrdagi chet tillarni o'rganish yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida''gi PQ-1875-sonli qarori
3. J.Jalolov "chet tilini o'qitish metodikasi (foreign language teaching methodology). Tashkent – 2012 (16,90.b), 432b